

A. S. Pushkin

ERTAKLAR



**“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT-2004**




Abdulla Qodiriyev

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2004

**Shoh Sulton va uning azamat
o'g'li botir Gvidon hamda Oqqush
beka haqida ertak**




Darcha yonida uch qiz
Uzoq tunda uyqusiz
Urchuq yigirisharkan,
Ham suhbat qurisharkan.
To'ng'ichi so'z boshlar emish:
«Men beka bo'lsam, demish,




Olamga o'zimiz yakka
Berardim to'y, ma'raka».
O'rtanchi aytgan emish:
«Men beka bo'lsam, demish,
Yer yuziga bir o'zimiz
To'qib berardim cho'zimiz».
Kenja qiz aytgan emish:
«Men beka bo'lsam, demish,
Shohimizga zo'rovon
Tug'ib berardim o'g'lon».

Shunday deyishi zamon,
Yurt egasi, shoh Sulton
Eshikni ochib asta,
Kirib kelmish barvasta.
Ayni suhbat chog'ida,
Darchadan ko'rgan ekan;
Devorning u yog'ida
Eshitib turgan ekan;
So'nggi so'z ko'p yoqipti,
Va kenjaga boqipti:
«Suluv qiz, salom senga,
Mayli, beka bo'l menga,
Tushganda kuz va mezon,
Tug'ib ber botir o'g'lon.
Siz esa, ona qizlar,
So'lim, jonona qizlar,
O'rningizdan tez turing,




Va orqamizdan yuring.
Oshpaz bo'lr to'ng'ich qiz,
Bo'z to'qir o'rtanchingiz!»
Shoh Sulton bir-bir yurib
Tashqari chiqmay turib,
O'rdaga ketmish chopar,
Barchaga yetmish xabar.
Shoh paysalga solmay hech,
To'y boshlapti o'shal kech,
Yonida yosh bekasi,
Sevgani va erkasi,
Shoh kayfi chog' o'tirar,
Ajoyib bazm qurar.
Bazmdan so'ng mehmonlar,
Podshohga qadrdonlar,
Saroyning eng to'riga,
Fil suyakli so'riga —
Joyni qalin solipti,
Qiz va kuyov qolipti.

Oshpaz qiz yum-yum yig'lar,
O'rtancha bag'rin tig'lar:
Singildan bo'lib xafa,
Rashk qilmish ikkov opa.
Beka bo'lsa, shohga yor,
Va'dasiga vafodor;
Shu kech yukli bo'lipti,
Shohning ko'ngli to'lipti.



Lekin bor ekan urush,
Shoh Sulton boshlab yurish.
Xush qol, — deb bekasiga,
Sevgani, erkasiga,
Bedoviga minipti,
«Meni unutma, — deпти, —
Ehtiyot bo'l o'zingga,
Va'dangga — o'z so'zingga!»
Shu ketgancha ko'p zamon
Jang qilipti shoh Sulton.
Yetmish to'lg'oq kuni ham,
To'qliday tetik, bardam,
O'g'il ko'rmish kelinchak,
Xuddi ona burgutdak —
Chaqaloqqa parvona,
Girgitton bo'lur ona.
Yetib o'z va'dasiga,
Xat yozib dadasiga,
Chopar jo'natmish shu kun,
Shohga suyunchi uchun.
Ammo, ikkala opa —
Bo'lib o'lguday xafa,
Shum kampir ham bosh qo'shib,
Chopar ketiga tushib,
Yo'ldan urmish shu fursat,
Ham yozmishlar bo'lak xat;
Jo'natib o'zga chopar,
Bitmishlar shunday xabar:
«Beka tug'di-yu, biroq,



Na o'g'il, na qizaloq,
Na qurbaqa, na sichqon, —
Badbashara bir hayvon».

Yetib bormish chopar ham,
Hayron qolmish shoh bu dam,
Hech ishonmas so'ziga,
Qon to'lipti ko'ziga,
Choparni osmoq bo'lmish,
G'azabin bosmoq bo'lmish,
Lekin afv etar bu gal:
«O'zim borib, qilgum hal.
Kutsin, — der, — qaytishimni,
Va hukm aytishimni».


Chopar yo'rtib, yelarmish,
Yorliq olib kelarmish.
Ammo ikkala opa,
Battarroq bo'lmish xafa,
Shum kampir bosh qo'shib,
Yorliq iziga tushib
Mast qilmishlar choparni,
U keltirgan xabarni —
Bildirmayin olmishlar
O'zga yorliq solmishlar.
O'sha kun mast yugurdak
Olib kelgan xat shundak:
«Beklar, farmonim sizga,
Paysallamay ish boshlang,




Ikkalasin dengizga —
Yashirin eltib tashlang!»
Yorliq bo'lgach na chora,
Beklar qolmish be chora,
Achinib, kuyib bari
Shoh Sulton farmoniga,
Yurmishlar haram sari,
Yosh bekaning yoniga.
Shoh Sultonning yorlig'in,
Taqdirda ne borligin,
O'qiptilar shu zamon,
Hamma gap bo'lmish ayon.
Keyin, tez ishga tushib,
Beka-yu o'g'lin qo'shib,



Bochkaga joylaptilar,
Mum surtib, moylaptilar;
Otmishlar dengiz tomon,
Buyurgan deb shoh Sul-ton...
Tiniq ko'kda yulduz lovullar,
Ko'k dengizda to'lqin shovullar,
Ko'kda bulut suzarmish,
Suvda bochka suzarmish.
Bochka tebrangan sari,
Sho'rlik, asir singari —
Yosh beka oh chekarmish,
Ko'z yoshini to'karmish.
O'g'il bo'lsa tinmayin,
O'sarkan soat sayin.




Kun-u tun yig'lar beka,
Bag'rini tig'lar beka.
O'g'li to'lqinni qistar,
To'lqindan ko'mak istar:
«Hoy to'lqin, erka to'lqin!
Sen sho'xsan ham sershovqin
O'z erkingcha yayraysan,
Dengiz toshin qayraysan,
Kemalarni ko'tarib,
Xohlaganda to'ntarib,
Xohlaganda toshasan,
Qirg'oqlardan oshasan,
Bizni halok etmagil,
Xalos etmay ketmagil!»
To'lqin esa unapti,
Qirg'oq tomon jo'napti;
Yetib birpasdagina,
Bochkani astagina —
Qo'yib suv yoqasiga,
Qaytipti orqasiga.
Qutulib qolmish ikkov,
Yer taftin olmish darrov,
Lekin, bochka berk, xayhot...
Tangri qo'llamas, nahot?
O'g'lon turmish oyoqqa,
Bosh tirab tepa yoqqa,
Kuchanmish andakkina:
«Darcha ochsak-chi, ona,
Shu yerdan hovli tomon?» —
Deb buzib chiqmish o'g'lon...





Ikkov ham endi erkin,
Atrofga boqmiş sekin,
Ko'rinar keng chamanzor,
O'rtasida tepa bor,
Tepada — eman yolg'iz,
Aylana — yashil dengiz.
O'g'lon o'ylar — qotar bosh:
Qani bo'lsa kechki osh,
Har qalay, o'zi kelmas,
Iloj qilmasam bo'lmas.
Eman sari yo'l solmiş,
Bir shox sindirib olmish;
So'ng shoxni egmiş tarang,
Va topmiş ipak-kanop,
Tortib bog'lapti tanob,
Tayyor bo'lmish yoy arang.
Ingichka qamish olmish,
O'q yasab, yonga solmiş
Ham jo'nab qolmiş tezlab,
Suv bo'yidan ov izlab.

Dengizga yetmiş bola,
Eshitmiş bo'g'iq nola...
Dengiz notinch, ish yomon,
Bitta oqqush beomon —
Jon chekib urinarmish,
To'lqinda surinarmish,
Suvlarga qanot urar,
Tipirchilar, yugurar,




Qaltirab ko'kka boqar,
Qarchig'ay qanot qoqar,
Va kelar panja ochib,
Tumshug'idan qon sochib...
Lekin, o'q uchib ketmish,
Bo'ynidan teshib o'tmish.
Qarchig'ay qoni oqib,
Suvga tushmish uloqib.
Shahzoda yoyni tashlar,
Dengizga qaray boshlar:
Qarchig'ay cho'kmoqdaydi,
Va faryod chekmoqdaydi,
Tovshi qushga o'xshamas,
Oqqush esa, to'xtamas,
Aylanadi, cho'qiydi,
Qanot urib, nuqiydi,
Tezroq o'lishin kutar,
Va oxir uni g'arq etar,
Kelar shahzoda tomon
Va gap qotar shu zamon:
«Ey mening xaloskorim,
Azamat jig'adorim,
Qayg'urma, men tufayli,
Och qolgin uch kun, mayli,
O'q bekor ketdi, dema,
Bekor ketmas, g'am yema.
Yaxshiliging bilaman,
Keyin xizmat qilaman:
Qushmas, qiz qutqarganing,




Sog' qoldi jonim maning,
Otganing — u hiylagar,
Qarchig'aymas, jodugar.
Hech ham unutmam seni,
Har qayda topgung meni.
Biroq, endi sen qaytgil,
Qayg'urmayin tinch yotgill»

Ham uchib ketmish oqqush,
Shahzoda qaytmish noxush,
Ona-bola noiloj,
Uxlab qolmish shu kun och,
Ko'zin ochsa shahzoda,
Ne hodisa dunyoda:
Ne ko'rinar ko'ziga,
Ishonmasmish o'ziga,
Katta shahar ko'rinar,
Naqshlari zar ko'rinar,
Ko'ngiralik ko'shklar bor,
Aylana baland devor,
Devorning orqasida
Cherkov-u ezgu joylar,
Va uylar orasida
Talay naqshin saroylar...
Uyg'otmish onasini,
Ona lol... «Va'dasini —
Unutmapti, — der o'g'il, —
Oqqush ishidir bull»
Yo'l solmish shahar tomon,



Ichkari kirgan zamon —
Boshlanar shodiyona,
Hayron o'g'il va ona,
Atrofdan suron kelar,
Peshvoz olamon kelar,
Cherkovda solib sado —
Kuylashar madh-u sano,
Ham oltin aravasi,
Ham yasangan o'rdasi —
Bularga bo'lmish siylov,
Yog'dirib olqish, maqtoV,
Shahzodaning boshiga —
Oltin toj kiygiznishlar,
Ham kelishib qoshiga —
Sen begimiz, demishlar.
Beka rozi bu baxtga,
O'g'il o'tirmish taxtga:
Beklik mansabin olmish:
Bek Gvidon atalmish...



Yel dengizda sayr etar,
Kemani haydab ketar;
Kema to'lqin yorarmish,
Yelkan ochib boramish.
Kemachilar hayron, lol,
O'zgarmish tanish orol,
Boqishmish orol sari,
Ko'rmish: mo'jiza bari.
Zar naqshlik yangi shahar,



Kema to'xtar yeri bor,
To'plar olov yog'dirar,
Kema to'xtashi darkor.
Barcha chiqar qirg'oqqa,
Bek chaqirar qo'noqqa...
Ziyofat, bazm qurmish,
Ham keyin savol so'rmish:
«Xo'sh, ne savdo etasiz
Ayting qayon ketasiz?»
Javob aytmish qo'noqlar:
«Dunyo kezdik ko'p choqlar.
Suvsar, tulki terisi,
Savdo-sotiq barisi,
Muhlat yetdi bu zamon,
Ketayapmiz sharq tomon —
Orol bor, nomi Buyan,
Biz yoqalab o'tgaymiz,
Ham shavkatli shoh Sulton
O'lkasiga yetgaymiz».
Bek yigit gapni boplar:
«Oq yo'l bo'lsin, janoblar,
Dengiz, ummondan o'ting,
Ham Sulton shohga yeting,
Mendan yetkizing salom!»
Qo'noqlar ketmish tamom.
Bek kuzatib qolipti,
Va uzoq ko'z solipti,
Ko'ngli, nechundur, noxush,
Ko'rsaki suzar oqqush.




— «Salom, go'zal bek o'g'lon,
Nechun holing parishon,
Va nega ko'ngling noxush?»
Savol so'rapti oqqush.
Bek deganmish shu chog'da:
«G'ussa meni ezmoqda,
Otamni ko'rsam deyman,
Shu to'g'rida g'am yeyman».
Oqqush deпти: «Xo'p, eshit!
Istaysanmi, bek yigit,
Dengizda uchib ketsang,
Kemani quvib yetsang.
Buning uchun qulay yo'l —
Bek yigit, kel, — chivin bo'll»



So'ng oqqush qanot qoqmish,
Suvlar chayqalib oqmish,
Beka suv sachratib mo'l,
Boshdan-oyoq qilmish ho'l.
Aylanib ko'rsaki bek —
Bo'lipti bir chivindek,
Darhol uchib ketipti,
Kemaga ham yetipti,
Asta o'tib eshikdan,
Joy olmish bir teshikdan.

Yel esib, daydib yurar,
Yelkema sho'x yugurar,
Orollardan o'tarmish,
Shoh yurtiga yetarmish.
Olisdan jozibador —
Ko'rinmish aziz diyor,
Qo'nmish bular qirg'oqqa,
Sulton chorlar qo'noqqa.
Chivin ham uchib ketmish
To'g'ri saroyga yetmish,
Ko'rsaki: shohlarga xos
Kiyinib zarrin libos,
Sulton taxtda o'tirar,
Ham g'amgin xayol surar;
Toj yarqirar boshida.
Lekin uning qoshida —
Kampir, to'quvchi, oshpaz,
O'ylashar nuqul g'araz,




Qarashar shoh yuziga,
Tikilishar ko'ziga...
Shoh ziyofat quripti,
Qo'noqlardan so'rapti:
«Janoblar, ne ko'rdingiz?
Ham qaylarda yurdingiz?
Ne gap uzoq tomonda?
Ne qiziq bor jahonda?»
Javob bermish qo'noqlar:
«Dunyo kezdik ko'p choqlar
Yaxshi yurtlarda bo'ldik,
Shunday mo'jiza ko'rdik:
Bo'lardi bir tik orol,
Unda bor edi bir tol,
Orol — bo'sh, o'zga jon yo'q,
Jon tugul bir makon yo'q.
Hozir bo'lmish obod joy,
Yangi shahar, oq saroy,
Zar qubba butxonalar,
Chorbog'lar, koshonalar,
Bek ekan Gvidon nom:
Yubordi senga salom».
Shoh Sulton hayron bo'pti:
«Agar o'lmasam, — deпти:
Shu orolga borgayman,
Bekka mehmon bo'lgayman».
Kampir, to'quvchi, oshpaz,
O'ylashib nuqul g'araz,
Yuborgusi kelmapti,

Va nazarga ilmapti.
Oshpaz qisib ko'zini,
Boshlapti o'z so'zini:
«Ajab g'alati xabar...
Orolda yangi shahar!
Men aytay, bilsin barcha,




O'rmonda o'sar archa,
Tagida bir olmaxon,
Qo'shiq aytadi hamon,
Olmaxon o'ynar po'choq,
Ham chaqar nuqul yong'oq,
Puchmas chaqqan yong'og'i,
Oltin hamma po'stlog'i,




Zumrad ekan mag'izi,
Bu mo'jiza, nag'izil»
Ochilmish shohning bahri,
Qistarmish chivin qahri,
Chaqarmish rostlab o'zin —
Xolasining o'ng ko'zin,
Oshpaz rangi oqarmish,
Va lol, haryon boqarmish,
Joriyalar ham singil,
Shum kampir bo'lib yakdil —
Ko'tarishmish xarxasha:
«Qarab tur, harom chivin,
Biz seni!» deb quvlapti,
To'pirlashib, chuvlapti.
Chivin darchadan o'tmish,
Uchib orolga ketmish.

Bek suv bo'yida yurar,
Suvga termilib turar.
Ko'ngli, nechundir, noxush,
Boqsaki yuzar oqqush.
«Salom, go'zal bek o'g'lon;
Holing nechun parishon
Va nega... ko'ngling noxush?» —
So'rapti undan oqqush.
Bek deydirmish shu choqda:
«Hasrat meni ezmoqda,
Men eshitdim qiziq gap,
Balki yolg'on, ne ajab,




Mo'jiza yo'q o'shancha —
O'rmonda o'sar archa,
Tagida bir olmaxon,
Qo'shiq aytadi hamon,
Olmaxon o'ynar po'choq
Va chaqar oltin yong'oq,
Puchmas chaqqan yong'og'i,
Oltin hamma po'stlog'i,
Mag'zi esa, sof zumrad
Meniki bo'lsa shoyad!»
Oqqush deпти shu nafas:
«Bu gap hech yolg'on emas!
Begim, aslo yema g'am,
Va o'ksima, jonginam,
Men uni xo'p bilaman,
Senga tayyor qilaman».
Bek o'g'lon yengil tortib,
Uyiga ketmish qaytib,
Darvozadan kripti,
Ne hodisa ko'ripti:
Baland archa tagida,
Hammaning ko'z o'ngida,
Olmaxon o'ynar po'choq,
Va chaqar oltin yong'oq,
Zumradin buyon qo'yar,
Oltinin uyon qo'yar,
Ham taxlar bo'lak-bo'lak
Bog'da yoki bo'stonda




Deb kuylar, cholib hushtak.
Alamon to'rt tomonda...
Bek juda hayron bo'пти:
O'lma, e oqqush, — deпти, —
Tangrim, o'zing quvonch ber,
Men singari yupanch ber!
Keyin, olmaxon uchun —
Joy solmish billur butun,
Tayin qilmish qorovul;
Mirzaga buyurmish ul:
Ol yong'oq hisobini,
Bergaysan javobini.
Daromad — bek o'g'longa,
Va balli — olmaxonga.


Yel dengizda sayr etar,
Kemani surib ketar,
Kema — to'lqin yorarmish,
Yelkan yozib borarmish.
Suzmish orol yonida,
Zo'r shahar tomonida —
Sohildan to'p otilmish,
Ham kema to'xtatilmish,
Barcha chiqmish qirg'oqqa,
Bek chaqirmish qo'noqqa,
Ziyofat, bazm qurmish,
Undan so'ng savol so'rmish:
— Xo'sh, ne savdo etasiz,
Ayting qayon ketasiz?




Javob aytmish qo'noqlar:
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,
Sotdik nuqul ayg'ir ot,
Don otlari — bedov zot,
Muhlat yetdi bu zamon,
Jo'naymiz uzoq tomon,
Orol bor — nomi Buyan,
Biz yoqalab o'tgaymiz
Ham shavkatli shoh Sulton —
O'lkasiga yetgaymiz».
Bek yigit gapni boplar:
— Oq yo'l bo'lsin janoblar!
Dengiz, ummondan o'ting,
Shavkatli shohga yeting,
Va ayting: Gvidon nom —
Bek yuborar ko'p salom.
Qo'noqlar qulluq etmish
Va yo'lga tushib ketmish...
Bek suv bo'yida yurar,
Suvda oqqushni ko'rar,
Qistarmish: men ketay, deb
Va otamga yetay, deb.
Oqqush suv socharmish mo'l,
Boshdan-oyoq yigit ho'l,
Va bo'lib pashsha surat,
Uchaqolmish shu fursat,
Kemaga qo'nib olmish,
Bir teshikka joylanmish.




Yel esar, daydib yurar,
Yelkema sho'x yugurar,
Orollardan o'tarmish,
Shoh yurtiga yetarmish,
Olisdan jozibador —
Ko'rinmish aziz diyor;
Chiqarmishlar qirg'oqqa,
Sulton chorlar qo'noqqa.
Pashsha ham uchib qolmish,
Va saroydan joy olmish.
Ko'rsaki: shohlarga xos —
Kiyinib zarrin libos,
Sulton taxtda o'tirar,
Va g'amgin xayol surar.
Toj yarqirar boshida,
Lekin, uning qoshida —
Kampir, to'quvchi, oshpaz —
O'ylashib nuqul g'araz,
Sassiq baqaday qo'rqinch —
Baqrayib qarar notinch.
Shoh ziyofat qurarmish,
Keyin savol so'rarmish:
«Janoblar, ne ko'rdingiz,
Ham qaylarda yurdingiz?
Ne gap uzoq tomonda?
Ne qiziq bor jahonda?»
Javob aytmish qo'noqlar:
— Dunyo kezdik ko'p choqlar,
Yaxshi yurtlarda yurdik,



Shunday mo'jiza ko'rdik:
Dengizda bir orol bor,
Va bir shaharki, zarkor...
Zar qubba butxonalar,
Boqchalar, koshonalar,
Va o'rda burchagida —
O'sadi baland archa,
Baland archa tagida —
Bir uy billurdan barcha,
Unda yashar olmaxon,
Qo'lbola, ziyrak hayvon,
Kuylar va o'ynar po'choq,
Ham chaqar nuqul yong'oq,
Puchmas chaqqan yong'og'i,
Oltin hamma po'chog'i,
Mag'zi — zumraddan nuqul,
Poylar qancha qorovul,
Xizmatda qancha malay,
Mirza esa, tinchimay —
Yong'oq hisobin olur,
Lashkar salomla kelur...
Po'stloqlardan pul quyib —
O'lkalarga oshirar,
Qizlar zumradni uyib,
Qaznoqlarga yashirar.
U yerda hamma — boy, to'q,
Bari saroy, chayla yo'q,
Begi bor — Gvidon nom,
Yubordi senga salom.




Sulton hayron bo'lipti:
— Agar o'lmasam, — deпти, —
Shu orolga borgayman,
Bekka mehmon bo'lgayman.
Kampir, to'quvchi, oshpaz,
O'ylashar faqat g'araz:
Sulton hech bormasin, der,
Orolni ko'rmasin der.
To'quvchi sasib kular,
Ham so'zni-so'zga ular:
— Bu kimga ham yoqarmish!..
Olmaxon tosh chaqarmish,
O'ynarmish oltin sohib,
Zumrad olarmish ochib,
To'plarmish uyum-uyum,
Kimga kerak u buyum,
Rostmi, yolg'on — kim bilar,
Kim ham quloqqa ilar,
Bu qiziq kimga darkor,
Bundan ajoyibi bor:
Dengiz ko'pirib, toshar,
Bo'sh qirg'oqlardan oshar,
Va shovqin-suron solar,
Haryon chopqillab qolar,
Paydo bo'lar shu zamon —
O'ttiz uchta pahlavon,
Tanlari o'tday yonur,
Bari yosh, dov va yovqur,
Bari savlatlik, ko'rkam,




Norg'ul, azamat, o'ktam;
Bari terilgan raso,
Boshliq — Chernomor bobo,
Mana sizga ajoyib —
Mo'jizaki — g'aroyib.
Mehmonlar indashmapti,
Tortishmoqʻistashmapti.
Ochilmish shohning bahri,
Qistab pashshaning qahri,
Chaqipti o'nglab o'zin —
Xolasining chap ko'zin,
Xola rangi oqarar,
«Voy» der, shumshayib qarar,
Baqirishar: «Bos, ushlal
Tutib ol, ez, ha mushtla...
Ha, senil...» — deb quvlashar,
Tipirlashar, chuvlashar.
Bek-chi, darchadan o'tmish,
Beparvo uchib ketmish...


Bek suv bo'yida yurar,
Suvga termilib turar;
Ko'ngli nechundir noxush,
Boqsaki — yuzar oqqush.
— Salom, go'zal bek o'g'lon,
Nechun holing parishon,
Va nega ko'ngling noxush?
Deya so'rapti oqqush...
Bek aytipti shu choqda:
— Armon meni ezmoqda;





Eshitdim g'alati gap,
Va shunga qildim talab,
Ha deb elitar mani.
— Nimasi g'alat qani?
— Qaydadir, ummon toshar,
Bo'sh qirg'ozlardan oshar,
Va shovqin-suron solar,
Haryon chopqillab qolar,
Suvdan chiqar shu zamon —
O'ttiz uchta pahlavon;
Tanlari o'tday yonur,
Bari dov, yosh va yovqur;
Bari savlatlik, ko'rkam,
Norg'ul, azamat, o'ktam;
Bari terilgan raso,
Boshliq — Chernomor bobo.
Oqqush yigitga demish:
— Ha, tashvishing shu emish?
O'ksima, jonginam san,
Bilaman bu sirni man...
Bu — dengiz botirlari,
Tug'ishganlarim bari,
Qayg'irmayin jo'nay qol,
Qo'noqlaring kutib ol!
Bek xursand, jo'nab qolmish,
Dengiz tomon ko'z solmish —
Minorada o'tirib,
Birdan dengiz quturib,
Hayqirib, toshmish shunda,



Qirg'oqdan oshmish shunda;
Paydo bo'lmish shu zamon —
O'ttiz uchta pahlavon,
Tanlari o'tday yonur,
Bari dov, yosh va yovqur.
Botirlar qo'shoq-qo'shoq;
Sochlari oq — yaltiroq,
Bobo yo'l boshlab kelar,
Shaharga qarab yelar.
Minoradan tushar bek
Va darrov ko'rishar bek,
Kutar qadrdonlarin,
Bahodir mehmonlarin.
Xalq shoshar, zich hamma yer,
Bekka bobo shunday der:
— Oqqushdan keldik, o'g'lon,
Va shundoq bo'ldi farmon,
Biz shahringga soqchimiz,
Kechalar poyloqchimiz,
Shu bugundan har mahal,
Birga bo'lurmiz tugal, —
Suvdan chiqib yurgaymiz
Qal'a ko'rib turgaymiz.
Xayr, tezdin ko'rishamiz,
Biz dengizga tushamiz,
Yer havosi ko'p og'ir
So'ng bari ketmish bir-bir...
Yel dengizda sayr etar,




Kemani surib ketar,
Kema to'liqin yorarmish,
Yelkan ochib borarmish;
Suzarmish orol yondan,
Va zo'r shahar tomondan,
Qirg'oqdan to'p otilmish,
Va kema to'xtatilmish;
Hamma chiqmish qirg'oqqa,
Bek chaqirmish qo'noqqa;
Ziyofat, bazm qurmish,
Undan so'ng savol so'rmish:
— Xo'sh, ne savdo etasiz,
Aytinq qayon ketasiz?
Javob aytmish qo'noqlar:
— Dunyo kezdik ko'p choqlar
Oldi-sotdi, bor yumush:
Po'lat ham oltin, kumush.
Muhlat ham yetdi bu choq,
Yo'limiz hali uzoq,
Orol bor — nomi Buyan,
Biz yoqalab o'tgaymiz,
Ham shavkatli shoh Sulton
O'lkasiga yetgaymiz.
Bek yigit gapni boplar:
— Oq yo'l bo'lsin, janoblar!
Dengiz, ummondan o'ting
Shavkatli shohga yeting,
Va ayting: Gvidon nom —
Bek yuborar ko'p salom




Qo'noqlar qulluq etmish,
Va yo'lga tushib ketmish...

Bek suv bo'yiga bormish,
Va oqqushga yorbormish,
Istar: yana ketay, deb,
Va otamga yetay, deb.
Oqqush ham suv sochmish mo'l,
Boshdan-oyoq yigit ho'l,
Qarasaki — shu fursat,
Bo'libdi ari surat,
Vizillab uchib ketmish,
Kemani quvib yetmish.
Qo'nib orqa eshikka,
Joylanipti teshikka...


Yel esar, daydib yurar,
Yelkema sho'x yugurar,
Orollardan o'tarmish,
Shoh yurtiga yetarmish.
Olisdan jozibador —
Ko'rinmish aziz diyor,
Bular qo'nmish qirg'oqqa,
Sulton chorlar qo'noqqa.
Ari ham uchib qolmish,
Va saroydan joy olmish,
Ko'rsaki, shohlarga xos —
Kiyinib zarrin libos,
Sulton taxtda o'tirar,
Va g'amgin xayol surar,



Toj yarqirar boshida,
Lekin, uning qoshida —
Kampir, to‘quvchi, oshpaz,
O‘ylashib nuqul g‘araz —
O‘tirarmish ayrilmay,
O‘qrayarmish qayrilmay...
Shoh ziyofat quripti,
Qo‘noqlardan so‘rapti:
— Janoblar, ne ko‘rdingiz?
Ham qaylarda yurdingiz?
Ne gap uzoq tomonda?
Ne hodisa jahonda?
Javob bermish qo‘noqlar:
— Dunyo kezdik ko‘p choqlar,
Yaxshi yurtlarda yurdik,
Shunday mo‘jiza ko‘rdik:
Dengizda bir orol bor,
Va bir shaharki, zarkor...
Unda har kun qiziq hol,
Eshitganlar bo‘lgay lol:
Dengiz ko‘pirar, toshar,
Bo‘sh qirg‘oqlardan oshar,
Va shovqin-suron solar,
Haryon chopqillab qolar;
Paydo bo‘lar shu zamon —
O‘ttiz uchta pahlavon,
Tanlari o‘tday yonur,
Bari dov, yosh va yovqur.
Bari savlatlik, ko‘rkam,




Norg'ul, azamat, o'ktam,
Bari terilgan raso.
Keksa Chernomor bobo —
Birga chiqar dengizdan,
Saf tuzib, boshlar izdan,
Bari orolga soqchi,
Kechalari poyloqchi.
O'shalarday hechqachon
Bo'lmas dov, tanti posbon.
Begi bor — Gvidon nom,
Yubordi senga salom.
Sulton hayron bo'lipti:
— Agar o'lmasam, — deпти: —
Shu orolga borgayman,
Bekka qo'noq bo'lgayman
Jim to'quvchi va oshpaz,
Shum kampir o'ylab g'araz —
Tirjayib bunday demish:
— Shu ham qiziqmi emish!
Suvdan chiqishib yurar,
Orolni ko'rib turar,
Va shahar poylar emish...
Bo'pti toza kulgi ish!
Rostmi, yolg'on — kim bilar,
Kimni bu hayron qilar?
Va bu hol kimga darkor?
Olamda o'zga gap bor;
Dengizning u yonida,
O'zining makonida —




Beka qiz yashar, ko'rkam...
Ko'z uzib bo'lmas hech ham,
Kunduz—kun xira bo'lur,
Tunda — olam nur olur.
Soch tagida — oy qalqar,
Manglayda — yulduz bolqar,
Yursa xo'b sollanadi,
Tovusday tovlanadi.
So'zi hammaga yoqar,
Buloq suviday oqar,
Mo'jizaki ajoyib,
Ajoyib-u g'aroyib.
Mehmonlar indashmapti,
Talashmoq istashmapti.
Ochilmish shohning bahri,
Qistapti Bekning qahri,
Buvisin so'zi yoqmas,
Lek, ayab ko'zin chaqmas,
Ko'p aylanmish boshida,
Ham vizillab qoshida,
To'g'ri qo'nmish burniga,
Xuddi qo'ngan o'rniga —
Raso nayzasin tiqmish,
Burin tez shishib chiqmish.
Boshlanipti xo'p shov-shuv:
— Ko'makka keling... yohul
Qorovul... bos, ha, ushla,
Tutib ol, ezib tashla,
Ha seni!.. deb quvlashar,






To'pirlashar, chuvlashar.
Ari darchadan o'tmish,
Bahuzur uchib ketmish.


Bek suv bo'yida yurar,
Suvga termilib turar;
Ko'ngli nechundir, noxush
Ko'rsaki — suzar oqqush.
— Salom — go'zal bek o'g'lon!
Nechun holing parishon?
Ayt: nega ko'ngling noxush?
Savol so'rapti oqqush...
Bek aytipti shu choqda:
— Hasrat meni ezmoqda;
Hammaning sevgani bor,
Yolg'iz men qoldim be yor!
— Bormidi ko'z solganing,
Ko'z ostiga olganing?
— Dengizning u yonida,
Emish, — o'z makonida —
Beka qiz yashar, ko'rkam...
Ko'z uzib bo'lmas hech ham.
Kunduz—kun xira bo'lur,
Tunda — olam nur olur,
Soch tagida — oy qolqar,
Manglayda — yulduz bolqar;
Yursa xo'b sollanadi,
Tovusday tovlanadi,
So'zi hammaga yoqar,
Buloq suviday oqar,




Bilmayman rostmi-yolg'on?
Qo'rqib so'z kutmish o'g'lon.
Oqqush o'ylab qolipti,
Va xo'rsinib olipti:
— Ha, to'g'ri. Shunday qiz bor,
Ammo u qiz — nozik yor;
Qo'lqopmas otsang haryon,
Belga qistirsang har on;
Kengashimga quloq sol,
Har yoqlama o'ylab ol,
Aynib yurmagin, keyin,
O'zingga bo'lur qiyin.
Ichipti bek xo'p qasam:
— Keldi uylanmoqqa dam;
Hammasin o'ylaganman,
Hech nima qo'ymaganman;
Sevib qoldim o'zini,
Izlayman yer yuzini,
Mayli, yayov chopaman,
Va bekamni topaman...
— Uh, — der, — qush birdaniga,
Olisdan izlash nega?
Toleing — yaqin, qo'zim,
O'shal beka — men o'zim!..
So'ng oqqush parvoz etib,
To'lqinlar osha o'tib,
Tushib panaroq joyga,
Qirg'oqdagi to'qayga,
Silkinib, shaylanipti,



Bekaga aylanipti.
Soch tagida — oy qolqar,
Manglayda — yulduz bolqar,
Xo‘b ulug‘vor sollanar,
Tovus kabi tovlanar,
So‘zi hammaga yoqar,
Buloq suviday oqar.
Bekani quchib o‘g‘lon,
Bag‘riga bosmish shodmon,
Darrov yetaklab ketmish
Ona oldiga yetmish,
Bosh egib deпти shu dam:
— Jonginam, onaginam!
Sayladim o‘zimga yor,
Senga qiz — itoatkor:
So‘raymizki, ikkovlon,
Fotiha ber, onajon!
Davri-davron suraylik,
Va uzoq umr ko‘raylik.
O‘rnidan turmish ona,
Boshlarida parvona,
Karomatlik xoch tutmish,
Ko‘zlaridan yosh to‘kmish:
— Qo‘sha qaring, iloyim —
Xudo qo‘llasin, doim.
Bek paysalga solmay hech —
To‘y ham qilmish o‘sha kech.
Birga umr etishipty,
Va farzand kutishipty.




Yel dengizda sayr etar,
Kemani surib ketar.
Kema to'lg'in yoripti,
Yelkan ochib boripti,
Suzarmish orol yondan,
Va zo'r shahar tomondan.
Qirg'oqdan to'p otilmish,
Ham kema to'xtatilmish,
Hamma chiqmish qirg'oqqa,
Bek chaqirmish qo'noqqa.
Ziyofat, bazm qurmish,
Undan so'ng savol so'rmish:
— Xo'sh, ne savdo etasiz,
Ayting qayon ketasiz?
Javob aytmish qo'noqlar:
— Dunyo kezdik ko'p choqlar,
O'ylamang, bekor yotdik,
Nuqul yasoq mol sotdik.
Yo'limiz hali uzoq:
Sharqqa jo'naymiz bu choq,
Orol bor — nomi Buyan —
Biz yoqalab o'tgaymiz,
Ham shavkatli shoh Sulton
O'lkasiga yetgaymiz.
Bek yigit gapni boplar:
— Oq yo'l bo'lsin, janoblar!
Dengiz ummondan o'ting,
Sulton yurtiga yeting,
Eslating shohingizga,




Ulug' panohingizga:
Bizga kelmoqchi edi,
Mehmon bo'lmoqchi edi,
Daragi yo'q batamom...
Ayting ko'pdan-ko'p salom.
Qo'noqlar ketmish tugal,
Bek yigit qolmish bu gal —
O'zining makonida,
Sevgan yori yonida...


Yel esar, daydib yurar,
Yelkema sho'x yugurar,
Orollardan o'tarmish,
Shoh yurtiga yetarmish,
Olisdan jozibador —
Ko'rinmish aziz diyor.
Bular qo'nmish qirg'oqqa,
Sulton chorlar qo'noqqa.
Qo'noqlar kelib ko'rar:
Sulton taxtda o'tirar,
Toj yarqirar boshida,
Va Sultonning qoshida —
Kampir, to'quvchi, oshpaz,
O'ylashib nuqul g'araz —
O'tirarmish ayrimay,
Baqrayarmish qayrimay...
Shoh ziyofat qurarmish,
Qo'noqlardan so'rarmish:
— Janoblar, ne ko'rdingiz,




Ham qaylarda yurdingiz,
Ne gap uzoq tomonda?
Ne hodisa jahonda?
Javob bermish qo'noqlar:
— Dunyo kezdik ko'p choqlar,
Yaxshi yurtlarda yurdik.
Shunday mo'jiza ko'rdik:
Dengizda bir orol bor,
Ham bir shaharki dongdor...
Zar qubba butxonalar,
Bog'zorlar, koshonalar;
O'rdaning etagida
O'sadi baland archa.
Baland archa tagida —
Bir uy billurdan barcha,
Unda yashar olmaxon,
Qo'l bola, ziyrak hayvon,
Kuylar va o'ynar po'choq,
Ham chaqar nuqul yong'oq;
Puchmas chaqqan yong'og'i,
Oltin hamma po'stlog'i;
Mag'zi zumraddan nuqul,
Poylar talay qorovul.
Yaxshi yashar jonivor;
Tag'in bir hodisa bor:
Dengiz ko'pirib, toshar,
Bo'sh qirg'oqlardan oshar,
Va shovqun-suron solar,
Haryon chopqillab qolar,



Suvdan chiqar shu zamon —
O'ttiz uchta pahlavon,
Tanlari o'tday yonur,
Bari dov, yosh va yovqur,
Bari sovatlik, ko'rkam,
Norg'ul, azamat, o'ktam,
Bari terilgan raso,
Boshliq — Chernomor bobo.
O'shalarday hechqachon,
Bo'lmas dov, tanti, posbon,
Bekning yori bor ko'rkam,
Ko'z uzib bo'lmas hech ham:
Kunduz—kun xira bo'lur,
Tunda — olam nur olur;
Soch tagida — oy qolqar,
Manglayda — yulduz bolqar.
Gvidon — shahar begi,
Maqtovining yo'q cheki;
Sevadi yurti tamom,
U senga yo'llar salom
O'pkasi bor: shoh Sulton —
Bizga kelmoqchi edi,
Mehmon bo'lmoqchi edi,
Daragi yo'q, der, hamon...
Sabri qolmay, shoh turmish,
Darg'alarga buyurmish:
— Yaxshi kemalar saylang,
Va safar uchun shaylang!
Kampir, to'quvchi, oshpaz,



O'ylashar nuqul g'araz,
Shoh Sulton bormasin, der,
Orolni ko'rmasin, der.
Lekin, shoh solmay quloq,
Qahrila depti shu choq:
— Men — shohmi yoki go'dak?
Ketaman bu gal beshak!
Yer tepa chiqib ketmish,
Eshikni tars berkitmish...
Bek uyida o'tirar,
Darchadan qarab turar:
Dengiz tinch, to'lqin urmas,
Shovqin solmas, ko'pirmas,
Havo tiniq va zangor,
Ham ko'rinmish kemalar:
Dengizda yelar ekan,
Shoh Sulton kelar ekan.
Bek darhol sakrab turmish.
Va qattiq na'ra urmish:
— Aziz onam, malikam!
Va sen — sevgilim, bekam!
Qarang anov tomonga:
Otam kelar bu yonga.
Kema kelar yonashib,
Bek durbin olmish shoshib,
Ko'rsa: turar shoh chindan,
U ham qarar durbindan.
Kampir, to'quvchi, oshpaz,
O'ylashib nuqul g'araz —




Boqisharmish hayron, lol.
Qanday belgisiz orol...
Zambaraklar o'q otmish,
Jomlar sado tarqatmish.
Bek kelmish dengiz yoqqa,
Shohni kutib olmoqqa;
To'quvchi, oshpaz bilan
Kampir — serg'araz bilan —
Shohni shahriga boshlar,
Indamay qadam tashlar.

Hamma saroyga yurmish,
Va soqchilarni ko'rmish;
Sovutlari yaroqlar,
Darvozani xo'b saqlar,
O'ttiz uchta pahlavon,
Ajablanar shoh Sulton,
Bari yosh, bari ko'rkam,
Norg'ul, azamat, o'ktam,
Bari terilgan raso,
Boshliq — Chernomor bobo.
Hovliga o'tar barcha,
Hovlida baland archa,
Olmaxon kuylar, qandoq,
Ham chaqar oltin yong'oq;
Chaqib, zumrad olarmish,
Qopchiqlarga solarmish.
To'lib ketipti haryoq.
Zar yong'oq, oltin po'choq,

Qo'noqlar shoshqin... nega?
Paydo bo'lmish yosh beka;
Soch tagida — oy qolqar,
Manglayda — yulduz bolqar.
Ulug'vor sollanarmish,
Tovusday tovlanarmish...
Qaynanasi ham kelmish,
Shoh ko'rib darrov bilmish...
G'ayrati jo'sh uripti
Tajang va lol, so'rapti:
— Senmisan? Qanday axir,
Bu ne o'zi, qanday sir?
Toshar, tutaqar emish,
Ko'z yoshi oqar emish.
Quchipti malikasin,






O'g'lin va yosh bekasin.
Yozilmish dasturxonlar,
Bazm qurmish mehmonlar.
Ham to'quvchi, ham oshpaz,
Ham kampirki, serg'araz —
Tum-taraqay qochmishlar...
So'ng ularni topmishlar...
Qilmishlariga iqror,
Ho'ngrasharmish zoru zor.
Shoh xursandlik tufayli,
Uyga jo'nang, der, mayli...
Kech kirar, to'y qizishar,
Sultonni yotqizishar,
To'shakni qalin solar,
Chala mast shoh dam olar.
Men shu to'yda bor edim,
Bo'za ichdim, bol yedim,
Sal ho'llandi mo'ylabim —
Shu yerda adoq gapim.




Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak



Deydilarki, burun bir pop bor ekan,
Peshonasi ko'ngildan ham tor ekan.
Bir kun u pop boripti bozor yoqqa,
Mol ko'rmoqqa va ham ko'nglin yozmoqqa.
Shunda unga — o'z yo'lini bilmagan
«Balda» nomli bir yigitcha uchragan.
Balda deпти: «Muncha erta turibsan?»



Ko'chalarda ne axtarib yuribsan?»
Pop aytipti: «Menga kerak bir shovvoz —
Yakka o'zi oshpaz, sayis, yog'ochsoz.
Yaxshi edi shunday odam topilsa,
Oz olsa-yu, lekin ishni ko'p qilsa».
Balda dedi: «Aytganing men bo'laman,
Jon boricha yaxshi xizmat qilaman.
Bir yil ishlab, peshonangga uch chertay,
Ovqatinga atala ber, shukr etay».
Pop o'zini o'y qo'yniga tashlapti,
Peshonasin qashimoqqa boshlapti;
Chertki borki, polvon bo'lsang chidash ber!
Bo'lar-ketar, «erta g'amin eshak yer!»
Pop Baldaga deпти: «Sharting juda bop,
Bu shart bo'lsa na six kuyar, na kabob.
Qani endi uyga qarab yuraylik,
G'ayrating ham himmatingni ko'rayik!»
Balda endi popga xizmat etarmish,
Kechalari poxol to'shab yotarmish.
To'rt kishining ovqatini urarmish,
Yetti kishi mehnatini qilarmish,
Erta turib hech bir ishni qo'ymasmish,
Qo'sh qo'sharmish, talay yerni haydarmish.
Pech yoqarmish, bozor borib qaytarmish,
Pishirgani tuxumlarni artarmish,
Pop xotini maqtab-maqtab yurarmish,
Popning qizi Balda deb g'am chekarmish.
Popning o'g'li «tog'a» dermish Baldani;



Ovqat qilib to'ydirarmish bolani.
Faqat popning o'zi uni sevmasmish,
Bir og'iz ham yaxshiroq so'z demasmish.
Qanday qilib haq to'lashni o'ylarmish,
Muddat yaqin, oy-kun qarab turmasmish.
Na yemoq bor, na uxlamoq, na ichmoq,
Peshonalar halitdanoq burishqoq;
Xotiniga ko'ngil yormish oxirda:
— «Nima qildik, xotin, bormi bir chora?»
Pop xotini — esli ayol, tadbirli,
Yana tag'in ancha shayton, makrli.
U deptiki: «Qo'rqmagin hech, bu jo'n ish
Qiyin emas bu bolani yo'q qilish.
Sen Baldaga bir og'ir ish buyurgin,
«Shuni bekam-u-ko'st ado et» degin.
Shunda hech kim peshonangga chertmaydi,
Va Balda ham: «haqimni ber!» demaydi».
Ag'darilmish pop ustidan katta tog',
Boqmish endi Baldaga ham u dadilroq.
Shovqin solmish: «Hay, Baldavoy, qaydasan?
Menga halol xizmat qilgan bolasan!
Quloq bergin: jinlar menga bir zamon
O'lgunimcha to'lar bo'lgandi o'lpon.
Uch yil bo'ldi to'lashmaydi hech bir haq,
Soz bo'lardi o'sha haqlar unsa naqd.
Atalangni ichib bo'lib jo'nasang,
To'latdirsang, bermaganga qo'yman».
Gap qaytarmay Balda popning gapiga,

Yo'lga tushib, yetmish daryo labiga.
 Qo'lga tutib arg'amchini to'lg'apti,
 Suvga solib, bir uchini ho'llapti.
 Shunda suvdan chiqib kepti kekxa jin;
 Depti: «Balda, nega kelding, so'zlagin!»
 — «Arqon bilan daryongizni chayqayman,
 La'natilar, sizni toza qiynayman!»
 Kekxa jinning qosh-qovog'i burishmish:
 — «Ayt-chi, nega qahring bizlarga
 tushmish?»
 — «Nega bo'lsin! O'lpon berish yo'q sizda,
 Vaqti o'tgan, o'ylab ko'rish yo'q sizda,
 Ustingizda, sordek qanot keraman,
 Siz itlarning jazongizni beraman!»
 — «Daryomizni chayqamay tur, Baldaboy,







Biz o'lponni topshiramiz qoldirmay,
Nevaramni yuboraman, shoshmay tur»...
Balda o'ylar: «Nevarasi shaytondur!»
Sho'ng'ib chiqmish chol yuborgan shum

o'e'il:

Mushuk kabi «miyov» tortib depti ul:
— «Ha, Baldaboy, omonmisan, qishloqi!
Bu qanday gap? Qanday o'lpon? Ne haqi?
Bir umr biz o'lpon nima — bilmaymiz,
Juda yomon xafa bo'ldik, bundan biz,—
Xo'p, mayliga, o'lponingni to'laylik,
Va o'rtaga shunday shartni qo'yaylik:
Bundan keyin hech bo'lmasin bu xil ish,
Yo'q yerdagi o'lponlarni undirish.




Qaror topsin mana shunga fikrimiz:
Qirg' oq bo'ylab chopishaylik ikkimiz,
Kimki o'zsa, o'lpon shunga qoladi,
Bu orada qop ham tayyorlanadi».
Qah-qah urib kulib olmish Baldaboy:
«Nimalarni o'ylaydiansan, bola, hoy?
Tenglashmoqchi bo'lasanmi men bilan,
Hayiqmasdan Baldaboyday kishidan?
Xo'p kelibsan, ajinalar pakari,
Ukam bilan chopishib ko'r ilgari».
Balda bormish yaqindagi o'rmonga,
Ikki quyon tutub solmish hamyonga.
Yana qaytib daryo bo'yiga bormish,
Jin bolasi topib, yuragin yormish.
Quyoning birin olmish qo'liga,
So'ngra depti Balda jinning o'g'liga:
— «Mana endi do'mbiramga o'ynaysan!
Sen tirrancha mendan o'za olmaysan,
Yaramaysan hatto quvlab yetishga,
Hech vaqtim yo'q bekor kuch sarf etishga,
Sen ilgari ukam bilan bir sinashgin,
Tayyormisan? Bir-ikki-uch! Yugur jin!»
Chopa ketmish qirg' oq bo'ylab jinbachcha,
Quyon chopmish uyni mo'ljallagancha.
Shuncha joyni chopa-chopa o'tkarib,
Tilin cho'zib, tumshug'ini ko'tarib,
Yetib kelmish jin bolasi turtinib,
Terga botib panjasi-la artinib,



U o'ylapti: «Yengdim shunday polvonni».
Balda bo'lsa silab-siyab quyonni,
So'zlanarkan: «Jonim ukam, charchading;
Endi dam ol, hech yerda dam olmading!»
Hayron qolmish jin bolasi bu holga,
Bo'yin egmish tushgach bunday ahvolga!
Tan berib u, quyrug'ini qimtipti,
Ammo ichdan: «shuni ezsam bir!» deпти.
U Baldagi deпти: «o'lpon keltiray»,
Bobosiga borib deпти: «Men o'lay!
Baldaboyning ukasidan yengildim»,
Boboy bo'lsa o'yg'a ketmish so'zsiz, jim.
Balda bu choq to'polonni boshlapti,
Suvga qo'rqinch arqonini tashlapti,
Har tomonga suvni chayqab, urinmish,
Suv betida jin bolasi ko'rinmish,
Deпти u: «Bas qil, o'lponing beraylik —
Lekin yana bir sinashib ko'raylik.
Mo'ljal olib otiladi shu tayoq,
Kim o'tkazsa bu sinovda o'sha haq,
O'lponlar ham o'shaniki, ne deding?
Yo qo'rqdingmi, chiqib qolar deb qo'ling?
Axir nega indamaysan?» — «Shoshmay tur,
Sen o'zingni polvon deb chog'lamay tur,
Men anavi zo'r bulutni kutaman,
Bu tayoqni shu bulutga otaman.
Shundan keyin hangomani boshlayman,
Eng qichishgan yeringizni qashlayman».







Jin bolasi qo'rqqanidan bo'zlapti,
Chopib tushib, bobosiga so'zlapti.
Balda yana arqonini tashlapti,
Jin elini qo'rqitmoqqa boshlapti.
Jin bolasi yana chiqib yuzaga,
Depti: «Tag'in nima deysan bizaga?
Sen xohlasang, o'lpon tayyor, olaqoll»
Balda depti: «To'xta, endi quloq sol,
Navbat mendan, men ham bir shart
qo'yaman,
Bajarmasang, ko'zlaringni o'yaman.
Qani sinab ko'rayin sen battolni,
Ko'rdingmi huv anovi ko'k baytalni.
Qani shuni bir chaqirim jildirgin.
Shundan keyin, «o'lpon meniki», degin,
Eplolmasang, hech haqing yo'q o'lponda» —
Ot tagiga kirmish bola shu onda:
Ey zo'r bermish, ey kuchanmish qizarib,
Ikki qadam bosmish otni ko'tarib
So'ng dovdirab yiqilipti chalqancha,
Balda depti: «Ha, ne qildi tirrancha?
Ahvoling shu, yana maydonga kirding,
Ko'p zo'r berib ikki qadam jildirding.
Men oyog'im orasiga olaman,
«Hayt» deyman-u o'z yo'linga solaman!»
Balda irg'ib minib otga chopipti,
Hammayoqni chang-u to'zon yopipti,
Jin bolasi es-hushin yo'qotipti.

Bu dahshatni bobosiga aytipti.
Nochor qolib, jinlar o'lpon to'plapti.
Baldaboyni o'lpon berib yo'llapti.
Balda kepti, tomoq qirib yo'talib,
Pop bu yoqda sakrab turib chayqalib,
Xotining orqasiga berkinmish
Qo'rqqanidan g'ujanak bo'b, chekinmish,
Balda uni topib olib: «Ma, — deпти,—
O'lponni ol, haqqimni bergil», — deпти.
Pop tark etib panani,
Ushlapti peshonani,
Tushib qopti chertkilar,
Chertki emas, tepkilar:
Pop bir chertkini yeпти,
Va tom bo'yi irg'ipti;






Ikkinchi chertki bilan
Ayrilpti u tildan;
Uchinchini ham yepti
Va hushidan ketipti.
Popning o'sha ahvoliga bo'lib mast,
Balda depti: «Arzon sho'rva tatimas!»



Baliqchi va oltin baliq haqida ertak



O'tgan choqda dengiz bo'yida
Chol va kampir umr suripti,
Yerto'lada — eski uyida
O'ttiz uch yil birga turipti.
Chol to'r solib ovlarkan baliq,
Kampir esa yigirar urchiq.
Chol dengizga to'r solsa bir gal,
Baqa yaproq tutipti yolg'iz



To'r solganda chol ikkinchi gal
Ilinipti dengiz o'lani.
To'r solganda chol uchinchi gal
To'rga tushmish bir mitti baliq,
Jo'n baliqmas naq oltin baliq.
Oltin baliq yalbormish cholga,
Odam kabi chiqarib ovoz:
— Qo'yib yubor, dengizga tushay,
To'lovim ham qiymat bo'lur, chol,
Ko'ngling ne tilasa bergayman.
Hayron bo'lmish, chol qo'rqib ketmish,
O'ttiz yil-u, boz uch yil raso
Baliqchilik qilgandi, ammo
Baliq so'zin eshitmagandi.
Chol baliqni qo'yib yubormish
Va so'z aytmish unga mehribon:
— Oltin baliq, Tangri yor bo'lsin,
Kerak emas menga to'loving;
Mayli tushgil yashil dengizga,
Erkin-erkin o'ynab yuraver!

Chol qaytipti kampir yoniga,
Va so'zlapti ulug' mo'jiza:
— Tutib oldim bugun men baliq,
Jo'n baliqmas — bir oltin baliq;
Baliq bizning tilda aytdi so'z,
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb,
O'z uyiga — yashil dengizga;
Katta to'lov to'layin, dedi,

Ne istasang berayin, dedi;
Men olgani botinolmadim,
Qo'yvordim yashil dengizga.
Cholni qarg'ay boshlapti kampir:
— Ey tentak chol, go'l, devona chol!
Ololmaysan baliqdan to'lov!
Hech bo'lmasa bitta tog'ora —
Olmaysanmi undan axir sen,
Tog'aramiz, bilasan teshik!

Chol boripti yashil dengizga,
Mavj urmoqda dengiz, qarasa,
Chaqiripti baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'rapti undan:
— Nima kerak senga, chol bobo?





Ta'zim bilan javob aytar chol:

— Poshsho baliq, holimga achin,

Xo'p urishdi kampirim meni:

Tinchlik bermas, qariding demas,

Kerak emish yangi tog'ora,

Tog'oramiz teshilgan, axir.

Oltin baliq beripti javob:

— Qayg'urmagil, Tangri yor bo'lsin,

Borgil, bo'lur yangi tog'ora.


Chol qaytipti kampir yoniga,

Tog'oralik bo'lipti kampir.

Urishipti kampir battarroq:

— Ey tentak chol, go'l, devona chol!



Kir tog'ora boy qilarmidi?



Jo'na, tentak, baliqqa borgil,
Ta'zim qil-u, uy so'rab olgil.

Chol boripti yashil dengizga,
(Yashil dengiz loyqalanipti)
Chaqiripti baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'rapti undan:
— Nima kerak senga, chol bobo?
Ta'zim qilib shunday deпти chol:
— Poshsho baliq, holimga achin, —
Meni kampir qarg'adi battar,
Tinchlik bermas, qariding demas,
Jag'i tinmas, uy so'rar nuqul.
Oltin baliq aytipti javob:
— Qayg'urmagil, Tangri yor bo'lsin,
Borgil, uy ham bo'ladi nasib!

Yerto'lası tomon qaytsa chol,
Yerto'ladan iz ham qolmapti,
Ko'z oldida: g'isht mo'rilik, oq,
Bolut yog'ochidan yasalgan —
Darvozalik bir uy turipti.
Uy yonida mehmonxona bor.
Derazaning yonida esa
O'tiripti kampir taltayib,
Qarg'amoqda cholni battarroq:
— Ey tentak chol, go'l, devona choll
Kelib-kelib uy so'rabsan-da!
Jo'na darrov baliq yoniga,



Ta'zim qilgin unga sen tag'in:
Qora dehqon bo'lmayman ortiq,
Men — begoyim bo'lish istayman!

Chol boripti yashil dengizga,
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda)
Chaqiripti baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'rapti undan:
— Nima kerak senga, chol bobo?
Ta'zim qilib, chol shunday deпти:
— Poshsho baliq, holimga achin,
Kampirni jin urdi battarroq.
Tinchlik bermas, qariding demas,
Qora dehqon bo'lmasmish ortiq,
U begoyim bo'lish istarmish!
Oltin baliq aytipti javob:
— Qayg'urma, bor, Tangri yor bo'lsin!


Chol qaytipti kampir yoniga,
Nima ko'rar? Baland bir saroy.
Oshquldoqda turar kampiri,
Savsar po'stin uning egnida,
Boshida ham alvon dakana,
Qator-qator inju bo'ynida,
Qo'llarida oltin uzuklar,
Oyog'ida qirmizi etik.
Atrofida oqsoch xotinlar,
Qoq o'rtada kampir turardi,
Sochlaridan sudrab urardi.



Kampiriga so'z qotipti chol:
— Salom aslzoda, begoyim!
Ko'ngling endi to'ldi shekilli!
Kampir bo'lsa o'shqurib battar,
Otxonada ishlashga solmish.


O'tib ketmish haftalar, oylar,
Kampir tag'in minmish qahriga,
Baliq tomon yo'llapti cholni.
— Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa:
Ortiq men begoyim bo'lmayman,
Poshsho xotin bo'lish xohlayman!
Qo'rqib ketib chol, shunday deпти:
— Eshak miya yedingmi, kampir?
Yurish-turish — nima, bilmaysan,





Poshsholik masxara bo'ldimi!
Kampir battar minib qahriga,
Chol yuziga tarsaki urmish:
— Qora dehqon, qanday botinding,
Kim qo'yiпти senga so'z aytmak,
Menga — menday begoyinga-ya?
Yaxshilikcha jo'nab qol, deyman,
Jo'natgayman bog'lab, bormasang.

Chol dengizga qarab yo'l solmish,
(Yashil dengiz qora rang olmish)
Chaqiripti baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'rapti undan:
— Nima kerak senga, chol bobo?
Ta'zim qilib, so'z aytiпти chol:
— Poshsho baliq, holinga achin!
Kampir tag'in boshladi g'avg'ol!
Bo'lmas emish ortiq begoyim,
Bo'lur emish erkin malikal..
Oltin baliq beradi javob:
— Qayg'urmagin, Tangri yor bo'lsin,
Mayli kampir bo'lur malikal
Chol qaytiпти kampir yoniga,
Qarasaki, shohona qasr,
Qasr ichra ko'rinar kampir,
O'tirarmish malika bo'lib,
Xizmatida beklar, amirlar
Asl sharob quyib bermoqda,
Ham malika quymoq yemoqda;




Atrofida talay yasovul,
Yelkalarda oyboltalari,
O‘rab olmish, juda ham qo‘rqinch.
Buni ko‘rib qo‘rqib ketmish chol,
Va bukilib, so‘z aytmish unga:
— Savlatli malikam, assalomalaykum!
Shoyad endi to‘lgandir ko‘ngling!
Qayrilib ham boqmapti kampir,
«Tez haydang!» deb aytipti xolos.
Sakrab turib beklar, amirlar,
Cholni sudrab hayday solmishlar.
Yasovullar eshik yonida
Sal bo‘lmasa chopayozmishlar.
Mazax qilib qolmish alomon:
— Qilig‘ingdan topding nodon choll
Bundan keyin bo‘lgusi saboq:
O‘z ko‘rpangga qarab cho‘z oyoq!

Tag‘in o‘tmish haftalar, oylar,
Kampir battar minmish qahriga,
Erini izlatar chopar yuborib,
Cholni topib kelmishlar axir.
Shunda kampir demish choliga:
— Jo‘na tag‘in baliq yoniga,
Ta‘zim qilib o‘tingil darrov,
Bo‘lmagayman ortiq malika,
Dengiz shohi bo‘lish istayman,
Xizmatimda tursin baliq ham,
Baliq bo‘lsin menga chopovull!

Botinolmas so'z aytishga chol,
Bo'la olmas kampir so'zini,
Tag'in bormish yashil dengizga.
Qora quyun ko'rar dengizda:
To'lqinlar o'shqirar g'azabkor,
Ham to'lg'anar, ham uvlar tinmay.
Chol chaqirmish baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'rapti undan:
— Nima kerak senga, chol bobo?
Ta'zim qilib, unga deпти chol:
— Poshsho baliq, holimga achin,
Jonga tegdi la'nati kampir,
Nima qilsam ekan shu topda?
Ortiq bo'lmas emish malika,






Dengiz shohi bo'lish istarmish,
Va dengizda yashash istarmish,
Sen ham borarmishsan xizmatga,
Bo'larmishsan unga chopovul.
Bitta so'z ham demapti baliq,
Suvga urub dumini faqat,
G'oyib bo'пти dengiz tagiga.
Javob kutib turmish sho'rlik chol
Uzoq qolib dengiz bo'yida.
So'ng qaytipti kampir yoniga,
Ko'rsa: tag'in o'sha yerto'la,
Bo'sag'ada o'tirar kampir,
Qarshisida — teshik tog'ora.



O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak




Xayrlashib banogoh,
O'tlanmish safarga shoh.
Bekach saroyda tanho
Shohni kutmish doimo.
Kecha-yu-kunduz kutmish,
Yo'llariga ko'z tutmish,
Shohni kutib har zamon.




Bo'pti ko'zlar nigoron,
Lekin yordan yo'q nishon!
Faqat quturar bo'ron —
Qorlarga to'lmish haryoq,
Hamma yer bo'lmish oppoq...
Tun-u kun kutib-kutib,
To'qqiz oy ketmish o'tib.
Bayram arafasida,
Arafa kechasida,
Xonim bekachga Xudo
Bir qizcha etmish ato.
Ertasiyoq, ko'p uzoq —
Kutilgan aziz qo'noq —
Podshoh qaytmish safardan,
Begona o'lkalardan.
Bekach shohga termilmish,
Og'ir-og'ir xo'rsinmish,
Shodligi oshganidan,
Sevinib shoshganidan
Umri tugab shu zamon,
Xonim bekach bermish jon.

Shoh uzoq tortmish alam,
Nachora? Banda u ham;
Hash-pash demay bir mahal,
Bekorchi tushday jadal
Bir yil ham o'tib qopti.
Shoh boshqa xotin opti.




Chinakam ham u dilbar
Bekachlikka yarashar;
Oppoqqina, xushqomat,
Aql-u didda alomat,
Lekin mag'rur va baxil,
Erka, kunchi, qora dil,
Sepi bor ko'rkam ko'zgu
Ko'p hikmatli ekan u;
Ko'zgu so'zlay olarkan,
Bekach ham quvonarkan.
Faqatgina u bilan,
Hikmatli ko'zgu bilan
U shod, hazillasharkan
Zeb berib, so'zlasharkan:
«So'zla aziz oynajon,
Haqiqatni et bayon:
Man emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi?»
Oyna derkan javoban:
«Shubhasiz san hammadan
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi».
Bekach qahqaha solib
Turli-tuman buralib,
Suzib ko'zi-qovog'in,
Qirsillatib barmog'in,



Zeb berib kerilarkan,
Ko'zguga termilarkan.

Biroq yosh malika ham
Ohista, bo'lib ko'rkam,
Kun sayin o'saketmish,
O'sib kamolga yetmish.
Yuzlari oq, qora qosh,
Xushfe'l, rahmdil, yuvosh
Malikaga kuyov ham
Topila qolmish shu dam,
U shahzoda Yelisey,
Aslzoda Yelisey,
Sovchiga shoh ko'nipti,
Darrov sep ham unipti:
Yetti savdo shahari,
Yuz qirq koshonalari.
Yuz ko'rarga otlanib,
Bekach juda bezanib,
Ko'zguga termilarkan,
Va undan so'rar ekan:
«Man emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi?»
Ko'zgu derkan shu mahal:
«Hech shubhasiz san go'zal;
Lekin, malika dunyoda,



Hammadan ham ziyoda,
U oq, go'zal va yaxshi
Qizil yuzlarning naqshi». .
Beka seskanib ketmish,
Qo'llarini musht etmish,
Ko'zguga bir tushurmish,
Yer tepinib do'q urmish:
«Ah, past ko'zgu, yaramas,
So'zlaring bari g'araz.
U qanday menga yetsin,
Mendan ham o'tib ketsin?
Ta'zirini bir beray,
Tavbaga tayantiray.
O'smay o'lgur, yaramas!
Oqligi bejiz emas:
Onasi ekan bo'g'oz,
Qorga termilgan xolos.
Ayt, mumkinmi hech mahal
U bo'lsa mendan go'zal?
Uning qanday haqqi bor?
Men go'zalman: bo'l iqror.
El-u yurtni izlasang,
Jahonni sinchiklasang,
Yo'qdir menga teng suluv,
Shundaymi?»

Depti ko'zgu:


«U baribir dunyoda
Hammadan ham ziyoda,



Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshil»
Bekach nochor o'rtanib,
Hasad o'tiga yonib,
Ko'zguni tez olipti,
Ham sandiqqa solipti.
Chaqirib Qora qizni,
Ham malika o'ksizni;
«Olib borib to'qayga,
Odamsiz xilvat joyga,
Oyoq-qo'lini bog'la,
Tiriklay bag'rin dog'la! —
Deb aytipti cho'riga, —
Yem bo'lsin, — deb, — bo'riga».




Yovuz xotinga, ayting —
Shaytonmi, jin kelar teng?
Chora yo‘q. Qora qiz ham
Malika bilan ildam
Yurib ketmish to‘qayga,
Va yetmish xilvat joyga,
Malika payqab qolmish,
Dahshat ichida tolmish
Ham yalbormish: «Panozim?
So‘zla, nedur gunohim?
Qizgina, rahm et mengal
Gar bekach bo‘lsam, senga —
Yaxshiliklar qilaman».
Qiz uni sevganidan,



Band aylamay, o'ldirmay,
Qo'yib yubormish shunday.
Deb: «Qayg'urma, omon bo'l»,
So'ng uy tomon solmish yo'l.
Bekach so'rapti jadal:
«Xo'sh? Qayoqda u go'zal?»
«To'qayda, o'zi yolg'iz», —
Deb javob qaytarmish qiz, —
«Bog'lidir qo'l-oyog'i,
Yirtqich yo'liqqan chog'i
Azobi kam bo'ladi,
Osongina o'ladi».

Shoh qizi yo'qolipti! —
Degan xabar tarqapti.
Qiziga shoh chekmish g'am,
Shahzoda Yelisey ham
Xudodan madad tilab,
Yo'lga tushmish so'roqlab
Aziz mehribonini,
Go'zal qalliqjonini.

Qalliq adashganicha,
To'qayda butun kecha,
Yurib-yurib tolipti,
Bir ko'shkka keb qolipti,
Bir it chiqib shu mahal,
Tinchlanipti hurib sal;
Darvozadan kirs qiz,




Sharpadan yo'q bunda iz,
It yurar erkalanib,
Malika ham shaylanib,
Yo'lak tomon opti yo'l
Halqaga cho'zipti qo'l:
Eshik ochilib ravon,
Qiz kirsaki, charog'on
Bir uy: — unda gilamlar,
Osig'liqmish sanamlar.
Go'zal pechkasi bormish,
So'rilar o'ymakormish,
Qiz ko'rsaki, bu manzil
Mehribon va rahmdil
Odamlarning manzili,
Bu yerda uning dili
Ozor topmasa kerak,
Lek hechkimdan yo'q darak,
Uylarga bir-bir kirmish.
Toza qilib supurmish,
Xudo uchun yoqmish sham,
Isitmish pechkani ham,
So'riga chiqib asta,
Uxlab qopti birpasda.


Yetganda tush pallası,
Kelmish odam sharpasi;
Kirmish yetti bahodir,
Mo'ylovsoz yetti nodir.



Zo'ri deпти: «Ajabol
Haryoq toza va barno.
Kimdir yig'ishtiripti,
Bizni kutib turipti,
Kim u? Chiq yonimizga,
Chin o'rtoq bo'lg'in bizga,
Keksa chol bo'lsang agar,
Bizga bo'lursan padar.
Yigit bo'lsang — biz seni
Deylik tutingan ini.
Kampir ersang — onasan,
Hurmatlarga qonasan.
Agar bo'lsang go'zal qiz,
Bo'lg'in aziz singlimiz».




Malika ham shu zamon,
Tushmish yigitlar tomon,
Ularni izzat qilib,
Salom bermish egilib:
Taklif etilmasdanoq,
Bo'lgani uchun qo'noq,
U, afv so'rab, qizarmish,
Ham uyalib bo'zarmish,
Payqaptilar so'zidan —
Bu qiz malika ekan;
Uni to'rga o'tqizib,
Nozi ne'matni tizib,
Qadah to'ldirishipti,
Patnida keltiripti.
Qiz rad etmish sharobni,
Zangori mayinobni;
Somsadan olib oz-moz,
Kovshangan bo'pti xolos.
«Charchadim» — deb juda ham,
So'rapti olmoqqa dam.
To'rdagi bir xonani,
Keng, yorug' koshonani
Unga berishiptilar...
Va so'ng chiqishiptilar.
Kunlar o'tmish izma-iz,
Lekin yosh malikamiz
To'qayzor makonida,
Bahodirlar yonida




Noxush emas holi ham;
Bahodirlar subhidam
Turishptilar inoq,
Ostlarida arg'umoq,
O'ng qo'lni xushnud etib,
Arabni quvib yetib,
Qilmoq uchun piyoda,
Sahrolarda aftoda,
Tatar boshini goho
Qilmoqqa tandin judo
Gohi Beshtov cherkasin
O'rmonda quvmoq uchun
Chiqarkanlar safarga,
Kulrang o'rdak otmoqqa.
Bu chog' bizning malika
Saroyda qolib yakka,
Supurib, sidirarkan,
Taomlar pishirarkan.
Bahodirlar bilan qiz
Yashar totuv, ginasiz.
Kunlar shunday o'tarkan,
Kun o'tib kun yetarkan.


Go'zal qizni jo'ralar
Jondan sevar ekanlar.
Bir kuni erta bilan,
Yetti bahodir birdan
Qiz uyiga kiripti




Zo'ri: «Ey, dilbar, — deпти, —
Bizlarning singlimizsan,
Bu narsa senga ravshan,
Bizlar yetti jo'ramiz,
Seni juda sevamiz,
Har birimiz ham seni
Jon deymiz yor qilgani,
Biroq iloj yo'qdir hech,
Bu mushkulni o'zing yech!
Birimizni er qilgil,
Boshqalarga bo'l singil.
Nega boshing chayqaysan?
Arzimiz rad etgaysan?
Bu yo'l — yo'l emasmi,
Senga maqbul emasmi?»
«Sofdil qahramonlarim,
Aziz og'ajonlarim», —
Deb malika so'z boshlar, —
«Yolg'on so'zlasam agar,
Tiriklay yerga kiray.
Men qayliqman, ne qilay?
Men uchun barobarsiz,
Aqlli, dilovarsiz,
Biling, men chin ko'ngildan
Barchangizni sevaman.
Biroq o'zgaga bu bosh
Mangu etilgan yo'ldosh.
Azizdir hammadan ham
U Yelisey shahzodam».



Jo'ralar jim qolipti,
Boshni qashlab olipti.
«So'rashning aybi yo'qdir,
Malika bizni kechir» —
Depti ulkan pahlavon, —
«Bunday bo'lsa hechqachon
U haqda ochmam og'iz».
— «Xafamasman», — deпти qiz, —
«Mening ham rad javobim —
Gunoh emas». Ular jim
Ta'zim bajo etmishlar,
Asta chiqib ketmishlar,
Shunday qilib ular bot
Kechirmishlar tinch hayot.
Alqissa yovuz bekach
Malikani eslagach,
Tura olmapti chidab;
Ko'pdan beri arazlab
Yurarkan ko'zqusiga;
Endi tushib esiga,
Ko'zgu tomon yuz tutmish,
G'azabini unutmish,
U yana ham kerilib,
Deпти tabassum qilib:
«Salom! So'zla ko'zgujon,
Haqiqatni et bayon:
Men emasmi dunyoda




Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi?»
Javob bermish oynajon:
«Go'zalliging begumon;
Biroq yashaydi bir qiz
Hechqanday hashamatsiz,
Ko'k eman makonida,
Bahodirlar yonida.
U sandan ham yaxshidir,
Go'zallikning naqshidir». .
Bekach to'kmish qahrini —
Qoraqizga: «Sen meni
Aldashga qanday jur'at
Eta olding, kasofat?..»
Qoraqiz qolib nochor,
Bariga bo'lmish iqror.
Tutaqib yovuz bekach,
Qoraqizni qiynagach,
Shoh qizin o'ldiray deb,
Yoki o'zim o'lay deb,
Belin mahkam bog'lapti,
Bag'rini o't dog'lapti.
Yosh malika bir kuni
Kutib og'alarini,
Yolg'iz o'tirar ekan,
Charxin yigirar ekan.




Yo'lakda g'azab bilan
It hurib qolmish birdan,
Hamda qarab ko'rsa qiz:
Hovlida qari, o'ksiz
Gadoy xotin yuribdi
Itni haydab turibdi.
Hassasi bilan. «Ena;
Sabr qil pichagina», —
Depti qiz derazadan, —
«Itni o'zim haydayman, —
Hamda senga, enajon,
Etaman xayri-ehson».
Qizga kampir der shu dam:
«Oh, jon bolam, qizginam!
Itning jonimni oldi,
O'ldirishga oz qoldi,
Irg'ishlariga bir boq!
Chiq yonimga, chiq tezroq».
Malika ham non olib,
Chiqmoq uchun qo'zg'olib,
Zinadan tushmasdanoq,
It yetib kelmish shu choq,
Hurib erkalanibdi,
Oyoqqa surkanibdi,
Yo'l bermapti o'tishga,
Kampir sari yetishga,
Kampir kelayin desa
Qiz yoniga, it esa —






Vahshiy hayvonlarsimon
Tashlanarmish u tomon.
«Ajabo, bu nima sir?»
Yaxshi uxlovmagandir» —
Malika soʻz qotibdi:
«Ma ol!» deb non otibdi.
Tutib opti shum kampir:
«Senga behad tashakkur,
Tangri qoʻllasin doim;
Sen ham tutib ol, Oyim!»
Malikaga xoʻp pishgan,
Oltin boʻlib yetishgan
Olma uchib boripti.
It sakrab, ingranipti...
Malika ikki qoʻllab
Opti olmani ushlab.
Koʻngling tusab mabodo,
Yeganingda qil duo» —
Deb kampir egilipti,
Va koʻzdan yoʻqolipti.


Birga malika bilan
Zinadan chiqar ekan,
Qalbi gʻamga toʻlganday,
«Tashla!» demak boʻlganday.
It gʻamgin termilipti,
Qizga qattiq huripti.
Qiz itni erkalapti,




Mehr bilan silapti:
«Ne bo'ldi senga, Lochin?
Yot endi!» O'zi lokin? —
Uyga kirib ketipti,
Eshikni berkitipti,
Xo'jalarin chidamsiz
Kutmak-chun malika qiz
Charxiga o'tirsa ham,
Lekin o'zi dam-badam
Olmaga termilarkan,
Faqat uni ko'rarkan,
Olma to'lib pishganmish,
Judayam yetilganmish,
Xushbo'y, bejirim, tarang,
Qip-qizil va tillo rang,
Bolga to'lib turarkan!
Urug'i ko'rinarkan.
Ovqatgacha qalamqosh
Kutmoqchi bo'pti, bardosh
Berolmapti sira ham,
Olmani olib shu dam,
Labiga tegizipti,
Bir tishlabdi, uzibdi
Ham uni yebdi asta...
O, jonim, u birpasda
Gangib, hushdan og'ibdi,
Qo'llari bo'shshibdi.
Tushib qo'ldan olma ham.



Ko'zlari tinib shu dam
But ostiga og'ib qiz,
Yotibdi sokin, jonsiz...
Safardan eson-omon
Qaytishibdi uy tomon,
Bu mahal yetti shovvoz.
Chiqib ularga peshvoz —
It qattiq yuguribdi
Notinch hura ketibdi.
Hovlini ko'rsatib u,
«Yaxshilikka emas bul»
Debdi ular: «Falokat
Yuz bergan bunda albat».
Ko'rib, bo'ptilar hayron,
It chopib kelib shu on,
Olmaga tashlanibdi,
Yebdi-yu jon beribdi.
Ma'lum bo'lmish: og'u
To'lgan olma ekan bu.
Malika qarshisida
Jo'ralar barisi-da,
Bosh egishib dilxasta,
Fotiha o'qib, asta
Uni yasantirganda,
Dafn qilmoq bo'lganda —
Bundan kechibdilar voz,
Malika qiz juda soz
Uyqu ichra yotgandek,




Juda go'zal va tetik
Yotarkan beharakat,
Nafas olmaskan faqat.
Uch kun o'tipti, hanuz
Uyqudan uyg'onmas qiz.
Dilda hasrat, nadomat
Ko'rsatganicha odat
O'qishib janozasin,
Malikaning murdasin,
Billur tobutga solib,
Hammalari ko'tarib,
Ketmishlar Bo'shtog' tomon,
Tun yarim bo'lgan zamon.
Olti ustunga uni,
Malika tobutini
Cho'yan zanjir-la asta
Bog'labdilar birpasda,
Atrofiga panjara
Qo'yiptilar ko'p sara.
Ulkan botir egilib,
Murdaga salom qilib,
Debdi: «Tinch yot, uxlagin;
Husning yovuzlik va kin
Qurboni bo'lib o'chdi,
Ruhing samoga ko'chdi.
Bizlar seni sevardik,
Sevgilingga saqlardik —
Bo'lmay yigitga nasib,



Bo'lding tobutga nasib».
Shum bekach shu kuniyoq,
Xushxabarga ishtiyoq —
Bog'lab, ko'zguni olmish
Ham savol so'rab qolmish:
«Ayt, menmasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi?»
Ko'zgu deпти javoban:
«Bekach, shaksiz, hammadan —
Oqsan, go'zal, yaxshisan,
Qizil yuzlar naqshisan».
Bu orada shahzoda
Jahon kezib aftoda.
Qaylig'ini izlarkan,
Doim yig'lab, bo'zlarkan.
Kimdan qilsa u savol,
Savol ko'rinar mahol;
Undan kulardi birov
Chetga burilar birov,
Arz aylapti nihoyat
Oftobga u azamat.
«Nurli quyoshi! Ko'kda san,
Yil bo'yi aylanasan
Qishni iliq, muloyim —
Bahorga ulab doim,
Samolarda yurasan,

Barchani teng ko'rasan.
Ko'rmadingmi dunyoning
Hech yerida ayt qani,
Yosh, go'zal malikani?
Men kuyovi». «Chirog'im
Malikani ko'rmadim. —
Depti quyosh, — muqarrar
U endi o'lgan chiqar,
Balki qo'shnim Oypatir
Ehtimol uchratgandir:
Biror yerda shoh qizin,
Ko'rib qolgandir izin».
Qora tunda shahzoda







Yotmish g'amgin, aftoda.
Oy ko'rinmish, yolvorib, —
Chopipti oyga g'arib.
«Oy, oymoma, do'stginam,
Tilla qoshcham! Keng olam —
Bo'lganda qop-qorong'u,
Chiqasan sochib yog'du,
Odatingni yulduzlar
Sevib, senga termilar,
Ko'rmadingmi dunyoning
Hech yerida ayt qani,
Yosh go'zal malikani?
Men kuyovi». «E inim, —
So'zlapti oy, — ko'rmadim
U go'zal malikani...
Chiqqum soqchi bo'lgani
Faqat kelganida gal.
Ehtimol men yo'q mahal,
O'tib ketgandir u qiz».
Shahzoda deпти: «Esiz».
Oy yana deпти shunda:
«Shoshma, sabr qil, uni
Balki shamol biladi,
O'sha ko'mak qiladi.
Sen unga bor jonginam,
Xayr endi ko'p tortma g'am».
Alp Yelisey shahzoda
Bo'lmay ma'yus, aftoda,

Boripti shamol sari,
Yolvoripti tillari:
«Shamol! Qudrating bilan
Bulutlarni quvlaysan,
Ko'm-ko'k dengizni darrov
Qilasan alg'ov-dalg'ov,
Yolg'iz xudodan o'zga
Hech kimni ilmay ko'zga,
Erkin kezib yurasan,
Haryonga yugurasan,
Ko'rmadingmi dunyoning
Hech yerida ayt qani,
Yosh go'zal malikani?
Men kuyovi». «Quloq sol»






Javob beripti shamol,
«Oqishlari ko'k, sokin
Soydan o'tgandan keyin,
Haybatli yuksak tog' bor,
Tog' bag'rida chuqur g'or!
O'sha g'orda g'am-alam
Zulmati ichra hardam, —
Ustunlarga tortilgan
Zanjirga band etilgan
Billur tobut tebranar,
Hech kimsadan yo'q asar.
U tobutda, dilovar,
Sening qaylig'ing yotar».
Shamol ketmish shundan so'ng,
Yig'lab shahzoda ho'ng-ho'ng.
Go'zal qayliqni so'ng bor
Ko'rmoq uchun dilafkor
Ketipti bo'sh yer tomon.
Borar ekan, namoyon —
Bo'lmish qarshida zo'r tog';
Atrofi bo'shliq, yaydoq.
Tog' bag'rida qora g'or,
Kiripti unga shunqor.
G'or qorong'i — muqarrar
Unda tobut tebranar.
U tobutda mangulik
To'shagida yotib tek,
Uxlar ekan malika.



Sevgani tobutiga
Butun jon-jahdi bilan
Otilmish yigit birdan.
Tobut sinmish. Qiz shu on
Tirilmish. Bo'lib hayron,
Uh tortib so'zlapti u:
«Ko'p uzoq uxlapman-kul»
Tobutdan chiqmish dilbar.
Ahl.. — ikkov ho'ngrab yig'lar.
Yigit qizni ko'tarib,
Yorug'likka chiqarib,
Holu ahvol so'rapti,
Uyga qarab jo'napti,
Darhol tarqapti mish-mish:
Shoh qizi tirik emish!

O'gay ona — shum bekach,
Uyda ishsiz zerikkach,
Ko'zqusiga termilib,
U bilan suhbat qurib
Der: «Manmasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi».
Ko'zgu deпти shu mahal:
«Hech bir so'zsiz, san go'zal,
Lek malika dunyoda
Hammadan ham ziyoda,



Hammadan oq va yaxshi,
Qizil yuzlarning naqshi».
Shum xotin sapchib turib,
Ko'zqusini sindirib,
Eshik tomon yo'l olmish,
Shoh qizin ko'rib qolmish:
Bag'ri alamga to'lmish,
Chidolmay, bekach o'lmish.
Ko'mib bo'liboq uni,
To'y bo'lipti shu kuni.
Qovushmish bir-biriga
Yelisey ham malika;
Dunyo bo'lgandan buyon
Bunday bazm hech qachon
Hech yerda bo'lgan emas,
Hech kimsa ko'rgan emas;
Men ham to'yda bor edim,
Pivo ichdim, bol ichdim,
Faqat mo'ylovim biroz
Ho'llanib qoldi xolos.




Oltin xo'roz ertagi




Bor ekanda, yo'q ekan,
Och ekanda to'q ekan;
Qadimgi saltanatda
Allaqaysi davlatda,
Yasharkan mard shoh Dadon.
Yoshligidan zo'r, polvon,
Qo'ni-qo'shniga dangal





Berarkan ozor har gal.
Ammo, qarigach, shovvoz
Kechmak bo'lmish jangdan voz,
Tinch yashay, deb ahd qilmish,
Bu choq qo'shnilar kelmish;
Solmish zahmat-u ziyon,
Tashvishda qolmish Dadon.
O'z mulkin yoqlamoqqa
Hujumdan saqlamoqqa
Lozim shohga tunu kun
Asramoqlik zo'r qo'shin.
Sarkorlar ko'z yummapti
Ammo hech ulgurmapti:
Janubdan kutsalar, yov —
Sharqdan kelmish beayov.
Daf qilinsa yov bundan
Bosib kelmish dengizdan.
Goh yig'labdi Dadon shoh,
Goh uyqusiz, chekmish oh,
Shu ham turmush bo'ldi-yu!
Oxir yordam so'rmish u:
Munajjim, donishmanddan,
Bichilgan qul, dardmanddan
Uni olib kelgani
Shoh yubormish choparni.


Ta'zim bilan chopar band
Shoh oldida donishmand



Qopdan olmish, turib g'oz —
Ajoyib oltin xo'roz.
U shohga deпти shuni:
«Qo'noqqa qo'ndir uni;
Oltin xo'roz, podshohim
Sodiq soqchingdir doim:
Atrof tinch bo'lsa — xo'roz
O'tirar jim, beovoz.
Ammo atrofdan sal-pal
Urush kutilgan mahal
Yoki yov qilsa xuruj,
Yo balo gar bo'lsa duch,
Xo'rozim qanot qoqar,
Yov kelar tomon boqar,
Tojini tikkaytirar,
Qanot qoqib qichqirar».
Shoh tashakkur bildirmish,
Bir uyum tilla bermish.
Suyunchidan deпти shoh:
«Harqachon bo'lg'in ogoh —
Harna talab etkaysan,
Murodingga yetgaysan».
Baland qo'noqda, xo'roz
O'lkani qo'rirkan soz,
Sal bilinsa xavf-xatar,
Sodiq soqchi boxabar —


Pat-pat qanot qoqarkan
Xatar tomon boqarkan:
«Qu-qu-quvv!» derkan xo‘roz
«Gashtingni sur, shohim boz!»
Hurkib hamsoya ellar
Jang qilishdan tinmishlar.
Dushmanlar to‘rt tomondan
Zarba yepti Dadondan.

Bir, ikki yil tinch, omon
O‘tmish. Jim xo‘roz hamon.
Bir kun shov-shuv ila shoh
Uyg‘onib, bo‘lmish ogoh,






Sardor aylapti xabar:
«Shohim! Xalqqa sen padar!
Sultonim! Tur! Falokat!»
Esnab Dadon, der faqat:
«Janob, o'zi nima gap?
Kim? Ne balo qilmish dap?»
Sardor deпти: «Qo'noqda,
Xo'rozing qichqirmoqda,
Poytaxtda vahm to'palon»,
Oynadin boqsa Dadon
Tipirchilarkan xo'roz
Sharqqa qarab boz va boz.




«Dam o'tmasin, yuringiz!
Odamlar, ot suringiz!»
Dadon sharqqa qo'shinin
Yo'llar bosh etib o'g'lin.
Xo'roz jim, shov-shuv bitmish,
Kulfatni shoh unutmish.

O'tmish raso sakkiz kun,
Dom-u daraksiz qo'shin:
Jang bo'ldimi — bo'lmadi,
Shohga xabar kelmadi.
Yana qichqirmish xo'roz,
Shoh qo'shini jo'nar boz:
To'ng'ichga u ko'makka
Kenjasin yubormoqda.
Yana tinchipti xo'roz,
Xabar kelmay qo'ymish boz:
Yana o'tmish sakkiz kun,
Odamlar notinch butun.
Yana xo'roz qichqirmish,
Shoh qo'shinga jar solmish,
Sharqqa eltmish ularni,
Bilmas, foyda bo'larmi?..
Qo'shin yurar kun-u tun,
Alamda yonar butun,
Na jangoh, na qarorgoh
Na sog'ona — ko'rmas shoh,



U o'ylapti: vo ajab
Bu qanday sir, qanday gap?
Sakkiz kun ham o'tipti,
Podshoh toqqa yetipti.
Ikki baland tog' aro
Ipak chodir muhayyo.
Borliq ajab sukutda,
Tor darada, ko'k o'tda
Qo'shin qirilib yotar
Shoh chodirga yo'l tutar...
Manzara dahshat nuqull!
Oldida ikki o'g'il
Dubulg'asiz, sovutsiz
Yotar bejon tobutsiz —
Ikkov qilich sanchishib,
Otlar yurar sanqishib,
Toptalgan o'tloqlarda,
Qon izi yaproqlarda...
Shoh yig'lapti: «Voy sho'rim!
Bolalarim, ko'z nurim!
O'g'illarim o'liptil
Umrim tamom bo'lipti».
Dadon ortidan qo'shin,
Ho'ngrab yig'lapti butun,
Vodiy ichi, tog' bag'ri
O'ksipti... titrab sag'ri.
Shu choq chiqmish chodirdan




Suluv parivash birdan —
Shohmakon malikasi
Go'zallarning bekasi.
Yorqin tongday — kumushday,
Kunni kutgan bir qushday
Shohni jo'n kutib olmish,
Shoh ko'z tikib, lol qolmish.
Qiz husniga ko'z tutmish,
O'g'illarni unutmish,
U qiz shoh oldida jim,
Kulib va aylab ta'zim
Bilagidan ushlapti,
Chodiriga xushlapti.
Dasturxon yoziq ekan,
Shoh zap ziyofat yegan.
So'ngra yotmish rohatga,
Kimxob-zar karavotga.
So'ng rop-rosa sakkiz kun,
Shubhasiz qizga maftun,
Avralgan, jazman — ayon
Aysh qipti bunda Dadon.


Eng oxir ortga tomon,
Lashkar bilan shoh omon,
Yonda go'zal malika
Qaytmish o'z manziliga.
Har xil ovoza — mish-mish,




Yo'lda barin eshitmish.
Poytaxt bo'sag'asida,
Darvoza yoqasida,
Xalq kutmish shov-shuv ila
Tantana, cholg'u bila.
Qiz, Dadon, to'p arava —
Ortidan chopmish hamma —
Ularni tabriklar shoh...
Shu choq ko'rinmish, evoh
Boshda arabiy qalpoq —
Oqqush singari oppoq,
O'sha oshno munajjim,
«Salom, ey otam, jonim!» —




Depti shoh: «Ne tilaysan?
Yaqin kel, ayt, bilay man?»
«Podshoh!» depti chol shunda:
«Tilagim aytsam bunda,
Eslasang xizmatimga
Va'da qilganding menga:
Nima tilak etgaysan,
Murodingga yetqaysan,
Labzing bo'lsa hadya et,
Malikani berib ket...»
Shoh hayratdan dong qolmish,
«Nima!» deb so'roq solmish,
«Shaytonga qo'l berdingmi?
Esingni yeb qo'ydingmi?
Nimalarni o'ylading?
Va'damni rost so'ylading,
Lek... har ishning haddi bor,
So'ng... qiz senga ne darkor?
Bas, kimman, bilasanmi,
So'ra, oltin deysanmi,
Yo beklilik, yo davlat,
Otim, otxonam — savlat,
Yo shohligim yarmisin
Beray, ol». «Istamayman.
Menga qizni hadya et,
Malikani berib ket!» —
Depti dangal donishmand.



Shoh tuflamish «Yeding pand!
Gapingga kirmagayman,
Hech narsa bermagayman.
O'zingni o'tga otma,
G'azabimni qo'zg'otma.
Badbaxt, o'lmay jo'nab qol,
Ha, ko'zimdan tez yo'qol!
Chol so'z qotmoqchi, ko'nmas,
Shoh bilan o'ynab bo'lmas,
Podshoh hassasin olmish
Va chol boshiga solmish.
Mukka tushib chol sho'rlik,
Til tortmay bo'lmish o'lik. —
Poytaxt kelmish larzaga,
Ammo yolg'iz malika —
Qah-qahlab kular, tinmas,
Gunohni pisand bilmas.
Shoh g'azabda bo'lsa ham
Qizga jilmaymish shu dam.
So'ng shaharga yo'l solmish,
Bir ovoz kelib qolmish.
Hamma ko'ripti boz-boz
Qo'ndoqda turgan xo'roz
Uchib arava tomon
Va shoh boshiga omon —
Kelib qo'nib tepibdi,
Cho'qib... parvoz etibdi.




Yerga qulab shoh Dadon,
Oh! — deya beribdi jon.
Malika shunda birdan
G'oyib bo'пти bu yerdan.
Ertak yolg'on, ma'nin chaq!
Uqqanga yaxshi saboq!





MUNDARIJA

Shoh Sulton va uning azamat o'g'li Gvidon hamda Oqqush beka haqida ertak (<i>Mirtemir tarjimasi</i>).....	3
Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak.....	47
Baliqchi va oltin baliq haqida ertak (<i>Mirtemir tarjimasi</i>).....	58
O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak (<i>Temur Fattoh tarjimasi</i>).....	70
Oltin xo'roz ertagi (<i>Shukur Sa'dulla tarjimasi</i>).....	98



A. S. PUSHKIN

ERTAKLAR

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2004**

*Muharrir Erkin Malik
Rassom Jirnov G.G.*

*Texnik muharrir Ra'no Boboxonova
Muasahhilar: Yu. Bizaatova, H. Abdusamatov
Sahifalovchi Soy L.*

Terishga berildi 11.12.03. Bosishga ruxsat etildi 29.03.04.
Bichimi 60x90 1/16. School Book garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma
tabog'i 6,5. Nashriyot-hisob tabog'i 3,3. Adadi 5000 nusxa.
Buyurtma № 5697. Bahoı kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**